| Ish bilan bandlikni sifat xususiyatlari asosida baholashga zarurat: ilmiy-nazariy yondashuvlar .....   | 842 |
| Qurbanov Samandar Pulatovich   |     |
| Technology of Formation of Profession-Oriented Communication Competences<br>in Training of Future Specialists in Higher Education Institutions ..... | 848 |
| Rajapov Sulaymon   |     |
| Improving The Methodology of Developing Professional and Communicative Skills<br>in Future Economists (In the Case of Teaching English) .....        | 852 |
| Samandarov Nargiza   |     |
| Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan<br>foydanish muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillar .....        | 860 |
| Sobirxonov Akbarxon Aziz-o'g'li  |     |
| Oziq-ovqat sanoati korxonalarida investitsion salohiyatni shakllantirishning mazmuni va ahamiyati .....  | 865 |
| Xamraev Nodirbek Ravshanovich  |     |



# ISH BILAN BANDLIKNI SIFAT XUSUSIYATLARI ASOSIDA BAHOLASHGA ZARURAT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

**Qurbanov Samandar Pulatovich**

PhD, Mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqolada respublika mehnat bozorida aholi bandligini sifat xususiyatlari asosida baholash bo'yicha ma'lum ilmiy-nazariy yondashuvlarni tizimlashtirilgan. Maqolada aholi banligining 7 ta turi bo'yicha firk-mulohazalar yuritilgan bo'lib, asosan aholining unumli bandlik darajasini baholashga alohida urg'u beralgan. Bu bilan bugungi kunda mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgayotga har qanday bandlik – unumlilik tamoyillariga asoslanishi lozimligi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, aholini ish bilan bandligining sifat xususiyatlariga qaratilgan tashkiliy va huquqiy istiqbolli yo'nalishlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ish bilan bandlik, ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari, unumli bandlik, zaif bandlik, samarali bandlik, to'liq va to'liqsiz bandlik, oqliona bandlik, munosib mehnat tamoyillari asosida bandlik.

**Abstract:** In this article, the author systematizes some scientific and theoretical approaches to assessing employment in the labor market of the republic based on qualitative characteristics. The article examines 7 types of employment of the population, and mainly focuses on assessing the level of productive employment of the population. It has been scientifically proven that any employment aimed at reducing poverty in the country today must be based on the principles of productivity. Organizational and legal promising directions focused on the qualitative characteristics of employment of the population are also proposed.

**Key words:** employment, qualitative characteristics of employment, productive employment, weak employment, effective employment, full and part-time employment, reasonable employment, employment based on the principles of decent work.

**Аннотация:** В данной статье автор систематизирует некоторые научно-теоретические подходы к оценке занятости населения на рынке труда республики на основе качественных характеристик. В статье рассмотрены 7 видов занятости населения, и в основном сделан акцент на оценке уровня продуктивной занятости населения. Научно доказано, что любая занятость, направленная на сокращение бедности в стране сегодня, должна основываться на принципах производительности. Также предложены организационно-правовые перспективные направления, ориентированные на качественные характеристики занятости населения.

**Ключевые слова:** занятость, качественные характеристики занятости, продуктивная занятость, слабая занятость, эффективная занятость, полная и частичная занятость, разумная занятость, занятость на принципах достойного труда.

## KIRISH

Aholi daromadlarining asosi – qariyb 70% ini mehnatdan keladigan daromadlar tashkil etar ekan, aholining to'liq, unumli, mahsuldar va munosib ish bilan bandligini rag'batlantirish har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi hamda kambag'allikni qisqartirishda asosiy o'rinn tutadi.

Ish bilan bandlikni sifat xususiyatlariga ko'ra baholashning ilmiy-nazariy yondashuvlari bir qancha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bular ishsizlik darajasi yoki ish o'rinnlari soni kabi bandlikning miqdoriy jihatlarini emas, balki ishdan qoniqish, mahsuldarlik va ishchilarining umumiyl farovonligiga ta'sir qiluvchi ishning sifat xususiyatlarini ham baholashga qaratilgan.

Aholi bandligining ijtimoiy funksiyalari uning iqtisodiy funksiyalari kabi ko'p tadqiq etilmagan. Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy masalalar singari, ish bilan bandlik masalalari ham ijtimoiy masalalar bilan bir xil darajada bog'liqdir. Chunki, ular subyektlarning ijtimoiy o'zaro aloqalari asosida paydo bo'ladi, natijada ular va qaramog'idagilar moddiy ehtiyojlari qondiriladi.



O'zbekistonda 2024-yil yanvar holatiga ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil etdi, ushu yilda yana 2,4 mln kishi mehnat bozoriga qadam bosadi. Bunga javoban tegishli vazirlik va idoralar 2024-yilda 5 mln kishini ish bilan ta'minlanishini ta'kidlashmoqda<sup>1</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda ish bilan bandlik nazariyasi turli xil yondashuvlar bilan ajralib turadi, ular turli xil iqtisodiy maktablarni o'rganish natijalariga asoslangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha jahon mamlakatlarida faol islohotlar olib borilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) barcha jihatlariga erishish uchun ko'proq sa'y-harakatlar talab qilinadi. Xalqaro hamjamiyat maqsadlarning bajarilmasligini barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan korxonalar, investorlar va kelajak avlodlar uchun manfaatli bo'imasligi mumkinlidan ogohlikka undaydi.

Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti Axborotnomasida e'lon qilingan Chen Vey tadqiqot natijalariga <sup>[1]</sup> ko'ra, aholi bandligi – ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, aholini ish joyi va bir vaqtning o'zida insonni yashashi uchun zaruriy mablag' bilan ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardan sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta'minlaydi.

Rus olimi I.S.Salnikova tadqiqotida ish bilan bandlik sifati quyidagicha talqin etildi: "shaxsning mehnat potensialining tashuvchisi sifatidagi mehnat faoliyati holati, bu unga o'z ehtiyojlarning umumiyligini ular mehnat jarayoni orqali paydo bo'lganda to'liq amalga oshirishga imkon beradi, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida ijobji ta'sir ko'rsatadi" <sup>[2]</sup>. Ushbu talqinda ish bilan bandlik sifat xususiyatlari keltirilgan bo'lib, sifat ko'rsatkichlari bo'yicha yondashuvlar ifodalanmaydi.

Taniqli rus olimi A.E.Kotlyarning fikri qo'llab-quvvatlanishi lozim, chunki mehnatdan farqli o'laroq, ish bilan bandlik ma'lum daromad olish hamda kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun amalga oshiriladigan maqsadli faoliyatadir. U iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarishning moddigi omillariga nisbatan tavsiflaydi va odamlar o'rtaсидаги ularнинг ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtiroki bilan bog'liqligini aks ettiradi" <sup>[3]</sup>.

B.D.Breev o'zining "Rossiya aholisini ish bilan ta'minlash sifati to'g'risida" maqolasida "mehnat bozorining bir qator umumi xususiyatlarini o'rganadi: ma'lum vaqt (14 yil) oralig'ida ishsizlik darajasi dinamikasi; ma'lumoti, jinsi, yoshi kabi mezonlar bo'yicha iqtisodiy faol va nofaol aholi tarkibi; mehnat unumidorligi; xodimlarning harakatchanligi; mamlakatdagi demografik vaziyat; band aholining asosiy ish joyidagi maqomi, faoliyat sohasi bo'yicha taqsimlanishi" <sup>[4]</sup>. Ushbu maqolada B.D.Breev mehnat bozorida davlatning bandlik siyosati bo'yicha tadqiqotlar bilan cheklanib, asosiy ko'rsatkichlardan: demografik ko'rsatkichlar, mehnat resurslari va mehnat bozori ko'rsatkichlari bilan kifoyalangan. Shu o'rinda, ish bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlariga oid manbalar qisman ochiqlangan.

Ish bilan bandlikning o'ziga xos sifat xususiyatlarini yoritishda rus tadqiqotchi olimlari N.A.Smirnova va O.S.Krutovalar mazmunan va mohiyatan mohirona yondashishgan. N.A.Smirnova o'z ilmiy tadqiqotida bandlik sifati mavzusini chuqurroq o'rgangan olimlardan biri bo'lib, u asosan "bandlik sifati belgilarini va ularning iqtisodiy faol aholi turmush sifatiga ta'sirini aniqlash; bandlik sifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning yangi modelini asoslash va uni amalga oshirish yo'nalishlari" <sup>[5]</sup> bo'yicha faol izlanishlar olib borgan bo'lsa, O.S.Krutova o'z ishlarida uy xo'jaliklarida bandlik sifatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, u "ish bilan bandlik sifati" toifasi baholashning uchta asosiy elementi prizmasi orqali ko'rib chiqiladi: mehnat bozori, bandlik darajasi va uy xo'jaliklarida turmush darajasi" <sup>[6]</sup>. Ushbu xususiyatan yondashuvlar ish bilan band aholining uy xo'jaliklarida turmush darajasiga ta'sirini ifodalab qolmasdan, ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari tarkibini ham yangilashga e'tibor qaratadi.

Ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlari ham mavjud. Ish bandlikning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir qator tadqiqotchi olimlar quyidagicha fikr-mulohazalar keltirishgan:

Rus olimlaridan M.E.Baskakova va I.V.Soboleva ish bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlariga "ishdan qoniqish; mehnat daromadi; mehnat shartnomasining turi; bandlik barqarorligi; yashirin ish haqining ulushi va boshqalar"ni kiritishni taklif etishadi <sup>[7]</sup>;

T.Yu.Stuken esa "ta'lif darajasi va profiliga muvofiq bandlik, rasmiy va norasmiy, to'liq va to'liqsiz ish vaqt" <sup>[8]</sup> kabi ko'rsatkichlarni ish bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlari sifatida qaraydi.

I.Chernishev "ish bilan bandlik sifati"ni ish haqi darajasi, ish soatlari soni, mehnat shartnomasining mustahkamligi va umumi barqarorligi" <sup>[9]</sup> kabilar bilan izohlaydi va uni umumi tarzda "mehnat sifati" deya tavsiflaydi.

Bizning fikrimizcha, ish bilan bandlik sifati "ish joyi sifati" yoki "ish jarayoni sifati" dan farq qilgan holda, ishning xolisligi, ish joyidagi erkinlik, hayajon va asabiylikni boshqarish, ish faoliyati muhitidagi o'ziga xos miqdoriy bo'lmagan, subyektiv jihatlar bilan tavsiflanmaydi.

<sup>1</sup> O'zbekistonda 2024-yilda 5 mln kishini ish bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda. Manba: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/08/employment/>



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy manbalarda o'z aksini topgan aholi bandligining 7 ta turi asosida aholi bandligi darajasini oshirish, ish o'rni, ish bilan bandlik sifati masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardag'i ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida 2022-yilda boshlangan keng ko'lamli islohotlar barqaror rivojanish sohasidagi maqsad va vazifalarga to'liq mos kelishi ekspertlar tomonidan qayd etildi. Shuningdek, O'zbekiston barqaror rivojanish yo'lidagi o'zgarishlar dasturini ilgari surishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgani ham e'tirof etildi [10].

Odamlarning ko'p vaqtleri ishda o'tkazilishini hisobga olsak, korxona va tashkilotlar o'z xodimlarining farovonligiga bevosita va bilvosita muhim ta'sir ko'rsatadi. O'z xodimlarining farovonligini qo'llab-quvvatlash orqali korxona va tashkilotlar o'zлari va butun jamiyat manfaati uchun inklyuziv va barqaror o'sishga hissa qo'shishlari mumkin [11].

Aholi daromadlarining asosiy qismini mehnat daromadlari tashkil etadigan har qanday mamlakatda ish bilan bandlik sifati muhim o'r'in tutadi.

Ma'lumki, bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlarini o'rganishga asosan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan juda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1970-yillarda AQShda paydo bo'lgan ushbu mehnat sifati konsepsiysi oradan 10 yil o'tib, 1980-yillarda to'liq shakllandi va unga keyinchalik rus, o'zbek va boshqa olimlarning qiziqishlari orta boshlagan [12].

**1-jadval:** Xalqaro hisobotlarda ish bilan bandlikning sifat ko'rsatkichlari tasnifi<sup>2</sup>

| №  | Xalqaro tashkilotlar   | Ko'rsatkichlar obyekti  |  |  |
|----|--|---|--|--|
|    |  | Ish joyi  | Ish bilan band shaxs   | Ish bilan bandlik  |
| 1. | Xalqaro mehnat tashkiloti [13]   | 1) Qabul qilib bo'lmaydigan ish<br>2) Qabul qilinadigan ish vaqt<br>3) Ishning barqarorligi va xavfsizligi<br>4) Ishda adolatli munosabat<br>5) Xavfsiz ish muhit | 1) Yetarli daromad va samarali mehnat<br>2) Ijtimoiy himoya<br>3) Ish joyidagi ijtimoiy muloqot va munosabatlar<br>4) Munosib mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy mazmuni | 1) Ishga joylashish imkoniyatlari<br>2) Ish va hayot muvozanati  |
| 2. | Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti [14]                            | 1) Ish muhitining sifati<br>2) Mehnat bozorida xavfsizlik [15]  | 1) Shaxs bandlik darajasi<br>2) Gender ish haqi farqlari<br>3) Ishdag'i zo'riqish [16]<br>4) Ishdan qoniqish [17]<br>5) Daromad sifati [18]                            | 1) Ish bilan bandlik darajasi [19]<br>2) Ishda, ta'linda yoki o'qitishda bo'lmagan yoshlar (NEET) [20] |
| 3. | Jahon banki [21]   | 1) Ijtimoiy himoya<br>2) Ish vaqt   | 1) Ish va shaxsiy hayot muvozanati<br>2) Jismoniy salomatlik va xavfsizlik<br>3) Ishdan qoniqish<br>4) Mehnat daromadlari  | 1) Rasmiy ish bilan bandlik  |
| 4  | Turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha Yevropa jamg'armasi [23] | 1) Ishning sifati<br>2) Ish vaqt  | 1) Bandlik sohasidagi risklar  | 1) Ish va shaxsiy hayot muvozanati   |
| 5  | BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi [24]                                   | 1) Mehnat xavfsizligi va etikasi<br>2) Ijtimoiy muloqot   | 1) Ish vaqt davomiyligi, shva shaxsiy hayot muvozanati<br>2) Bandlikning barqarorligi va ijtimoiy himoya<br>3) Daromad va mehnat imtiyozlari                           | 1) Malaka oshirish va kasbiy tayyorgarlik<br>2) Mehnat munosabatlari va mehnat motivatsiyasi           |

<sup>2</sup> Mualif tomonidan tizimlashtirilgan




Xalqaro tashkilotlar qo'llanmalari va ilmiy tadqiqot natijalarini o'zida aks etirgan hisobotlarida ish bilan bandlikning sifat ko'satkichlari turlicha ko'satkichlar bilan tavsiflangan. Ularni ish joyi, ish bilan band shaxs va ish bilan bandlik ko'satkichlari bo'yicha tasniflandi. Unda ish beruvchi ish joyiga, xodim ish bilan band shaxsga, davlat esa ish bilan bandlikka taalluqli ko'satkichlarni baholab borishi maqsadga muvofiqligi asoslandi.

O'zbekiston mehnat iqtisodchi olimlaridan sanoqlilari ushbu muammoning dolzarbligini tan olishgan va bandlik sifatiga ham e'tibor qaratishni afzal biliшadi. Ish bilan bandlikdagi ijtimoiy jihatlar va band aholining mehnat daromadlarini oshirishga qaratilgan yondashuvlar o'zbek olimlaridan akademik Q.H.Abdurahmonov ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan.

Xalqaro hisobotlarda ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari va ko'satkichlari ish joyi, ish bilan band shaxs va ish bilan bandlik holati kontekstida o'z aksini topgan (1-jadval).

Ish bilan bandlikning sifat xususiyatlari va ko'satkichlarini tadqiq etishda ish bilan bandlik turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochiqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida sifat xususiyatlariga ko'ra, ish bilan bandlikning quyidagi asosiy turlari mavjudligi aniqlandi: munosib mehnat tamoyillari asosida bandlik, to'liq bandlik, samarali bandlik, to'liqsiz bandlik, oqilona bandlik, unumli bandlik, zaif bandlik (1-rasm).



**1-rasm:** Ish bilan bandlik sifat xususiyatlari bo'yicha asosiy turlari<sup>3</sup>

Milliy adabiyotlarda munosib mehnat tamoyillari asosida bandlik, to'liq bandlik, samarali bandlik, to'liqsiz bandlik, oqilona bandlik bo'yicha yetarlicha tadqiqotlarni uchratish mumkin.

Xususan, samarali bandlik aholi ish bilan bandlikka ehtiyojining mavjud ish o'rinaliga muvofiq kelishidagi sifat xususiyati bo'lib, iqtisodiy nuqtayi nazardan mehnat resurslaridan eng oqilona foydalanishni, ijtimoiy jihatdan mehnat faoliyatining inson manfaatlariga eng muvofiq kelishini bildiradi. Biroq unumli bandlik va zaif bandlik tavsifi bo'yicha hanuz bahsli mulohaza va munozaralar mavjud.

Tadqiqotlar davomida unumli va zaif bandlikka quyidagicha ta'rif berishni joiz deb bilamiz:

**Unumli bandlik** – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o'zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o'zi va qaramog'idagilar uchun milliy kambag'allik chegarasidan yuqori darajadagi iste'mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

**Zaif bandlik** – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o'zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o'zi va qaramog'idagilar uchun milliy kambag'allik chegarasidan yuqori darajadagi iste'mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltira olmaydigan faoliyatdir.

Ish bilan bandlik har qanday mamlakat iqtisodiyoti, aholi daromadlari va farovonligi asosi hisoblanadi. Aholi bandligi darajasi eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy ko'satkich hisoblanadi. Shu bilan birga aholi bandligi demografik jarayonlarga ham bevosita va bilvosita bog'liq hisoblanadi.

Binobarin, ish bilan bandlik darajasi mehnat bozori holatini eng muhim xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. Amaldagi bozor mexanizmi va qonunlari yordamida mamlakatda "to'liq bandlikka erishish mumkin emas" [25]. Davlat bandlik siyosati orqali aholi ish bilan bandligini tartibga solish imkoniyatlari mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ish bilan bandlikni sifat xususiyatlari asosida baholash zarurati quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

*Birinchidan*, xodimlarning mehnatdan qoniqishi va ishidan rozilik alomatlarini yuksaltirish bo'yicha choratadbirlar natijadorligini monitoring qilib borish. Bynda korxona va tashkilotda xodimlar o'z ishlaridan qanchalik

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



qoniqishlarini, jumladan, mehnat sharoitlari, hamkasblar va rahbariyat bilan munosabatlari, ishning shaxsiy ko'nikma va qiziqishlarga muvofiqligi kabi jihatlar hozirgi vaqtida juda muhim ahamiyat kasb etib, monitoringdan chetda qolmasilgik kerak.

*Ikkinchidan*, mehnat sifatini doimiy tahlil qilish va ilmiy o'rganib borish. Bu ish joylarini ish barqarorligini, kasbiy yuksalish imkoniyatlari, ijtimoiy ta'minot va mehnat sharoitlari kabi bir qator mezonlar bo'yicha bahola-nishi darkor.

*Uchinchidan*, har qanday ish bilan band shaxsnинг kasbiy farovonligi chuqur tahlil etilishi maqsadga muvofiқ. Nu esa ish joyida ma'no va maqsad hissi, ishdagi stress va charchash kabi ishning psixologik jihatlariga e'tibor qaratilishiga ko'mak beradi.

*To'rtinchidan*, xodimlar mehnat munosabatlarining moslashuvchanligini baholab borish kerak. Mehnat munosabatlari xodimlar va ish beruvchilarning ehtiyojlari va afzalliklariga, jumladan, moslashuvchan ish soat-lari, masofaviy ish va vaqtinchalik ish bilan ta'minlash darajasiga moslashishini baholaydi.

*Beshinchilan*, doimiy tarzda xodimlarning malakasi va malaka darajasini baholash tizimini ishlab chiqish kerak. Shu asosida ish beruvchilar xodimlarning malaka va ko'nikmalarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini tahlil qiladi, shu jumladan o'qitish va malaka oshirish ehtiyojlarini tahlil qilib boradi.

Ushbu yondashuvlar turli metodologiyalar va tadqiqot vositalarini, jumladan, so'rovlar, suhbatlar, mehnat bozori ma'lumotlarini tahlil qilish va sotsiologiya, psixologiya va mehnat iqtisodiyoti sohalarining nazariy model-larini qo'llashni kompleks qo'llashni talab qiladi. Ular nafaqat aholi bandligining hozirgi holatini baholash, balki mehnat bozoridagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va yanada yaxshi va barqaror mehnat munosabatlarini shakllantirishga hissa qo'shish imkonini beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чэнь Вэй. Современный китай: проблема занятости // Вестник РУДН, серия Международные отношения, 2009, № 3, с.61-75.
2. Сальникова И.С. Управление качеством занятости населения в Хабаровском крае: автореф. дис. канд. экон. наук (08.00.05). Дальневост. гос. ун-т путей сообщ. – Хабаровск, 2007. – 25 с.
3. Чукреев П.А., Корытова Е.В. Занятость населения и её регулирование / П.А. Чукреев, Е.В. Корытова. –Улан-Удэ: ВСГТУ, 2010. –212 с.
4. Бреев Б.Д. О качестве занятости населения России // Общество и экономика. – 2005. – № 7/8. – С. 305-325.
5. Смирнова Н.А. Качество занятости как приоритетное направление повышения уровня жизни населения: автореф. д-ра экон. наук (08.00.05). Всерос. центр уровня жизни при Министерстве труда и соц. развития РФ. – М., 2001.
6. Крутова О.С. Типология качества занятости в условиях формирования института рынка труда: автореф. дис. ... канд. экон. наук (08.00.01). Институт экономики Карельского научного центра РАН. – Петрозаводск, 2006. – 16 с.
7. Соболева И.В. Человеческий потенциал сферы малого бизнеса: возможности развития // Вестник международного института менеджмента ЛИНК. – Жуковский, 2016. – № 12(41). – С. 66–70.; Баскакова М.Е., Соболева И.В. Малый бизнес: качество занятости и соблюдение трудовых прав // Россия и современный мир. – 2017. – № 2(95). – С. 57–74.
8. Стукен Т.Ю. Качество занятости выпускников на региональных рынках труда // Вестник Кемеровского государственного университета. – 2018. – № 2. – С. 33–39.
9. Chernyshev I. Towards an International quality of employment framework: conceptual paper of the task force on the measurement of quality of work, Working Paper No 1. Joint UNECE/ILO/EUROSTAT Seminar on the Quality of Work. – Geneva, 18-20 April, 2007.
10. Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиш миллий мақсадлари: БРМга етиш бўйича эришилган натижалар ва муаммолар. Манба: <https://uz.aуз/posts>
11. Employee well-being report (Pilot). URL:<https://www.oecd.org/wise/Employee-well-being-report-pilot-2023.pdf>
12. Bindu J. Quality of Work Life with Special Reference to Academic Sector // Research Journal of Management Sciences. – 2014. – Vol. 3(1). – P. 14–17.
13. Decent work indicators: guidelines for producers and users of statistical and legal framework indicators: ILO manual: second version. International Labor Office. – Geneva: ILO, 2013. – 257 p.
14. Work and job quality. (Organisation for Economic Co-operation and Development) // URL:<https://www.oecd-ilibrary.org/sites/ad47bc5e-en/index.html?itemId=/content/component/ad47bc5e-en>
15. How good is your job? Measuring and assessing job quality // URL: <https://www.oecd.org/sdd/labour-stats/Job-quality-OECD.pdf>
16. Work and job quality. // URL:<https://www.oecd-ilibrary.org/sites/ad47bc5e-en/index.html?itemId=/content/component/ad47bc5e-en>
17. Employee well-being report (Pilot) // URL:<https://www.oecd.org/wise/Employee-well-being-report-pilot-2023.pdf>
18. How good is your job? Measuring and assessing job quality // URL: <https://www.oecd.org/sdd/labour-stats/Job-quality-OECD.pdf>
19. Employment database – Job quality. URL: <https://www.oecd.org/employment/emp/employmentdatabase-jobquality.htm>



20. Work and job quality. // URL:<https://www.oecd-ilibrary.org/sites/ad47bc5e-en/index.html?itemId=/content/component/ad47bc5e-en>
21. Global Job Quality: Evidence from Wage Employment across Developing Countries (World Bank) // URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099815508012237346/pdf/IDU09ac855b6033b20401e0b7d20c77cc771201c.pdf>
22. Quality of employment conditions and employment relations in Europe. Eurofound. (European Foundation for the Improvement of Living and Working Conditions (Eurofound) – Dublin, 2013. – 66 p.
23. Handbook on measuring quality of employment: a statistical framework. Prep. by the Expert Group on Measuring Quality of Employment. – NY: Economic Commission for Europe; United Nations, 2015. – 320 p.
24. Б.А.Воронин, И.П.Чупина, Я.В.Воронина. Занятость населения как одна из макроэкономических проблем современности // Журнал "Аграрное образование и наука", Специальность "Экономика и бизнес", 2020. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/zanyatost-naseleniya-kak-odna-iz-makroekonomicheskikh-problem-sovremennosti>.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.